

This is not registered version of TotalDoc Converter
Ushbu sahifa o'ziga o'ziga qurilgan, qimmatligina e'tibor qiling.

- Aytmay dedim-u, hech ichimda saqlay olmadim. Bari sizga ko'nglim yaqinligvdan, sizga kamoli hurmatimdan. Buni qarang, Tunov kuni anovi Qobilov sizni so'kkanday bo'lib gapirdi-da... Yo tavba...

- Yo'g'e?!

Ha, ha. Besh-olti kishining o'rtasida-ya, tag'in. Odamning olasi ichida deb shuni aytadi-da. Shuni odam qilgan siz-ku, bo'lmasam... ukamdek deb yurasiz. Odamzod yaxshilikni darrov unutar ekan-da. Ana endi qorni to'yib, egasini tepayotibdi, bu eshshak.

Qo'ying, xafa bo'lmang. Og'zidan chiqib yoqasiga yopishsin. Sadqai sar... Aytmay dedim-u, yana chiday olmadim, desangiz.

Eshitgan quyaoqqa yomon ekan-ey. Bih

- He, afsus...

U kichkina xonaga qaytib kirib gerdayib, dedi:

Hoy, bola, sen ham yuribsan-da, akam bor deb. Sen odam tanlashni bilmas ekansan. Ko'r ekansan. Seni ko'rgali ko'zi yo'q ekan-ku, akangning. Voy-bu-u... Ishga olganiga ham afsus qilib o'tiribdi. Ishing chatoq... Aytmay dedim-u, yana ichimga sig'may ketyapti-da. Senga kamoli hurmatidan, bilsang agar. Tezroq oldini ol. Ustingdan ish qo'zg'otmasa go'rga edi...

Nahotki?!

Gapdan o't chiqdi.